



2026-yil 5-mart, 44-son

Yurtimizda inson qadrini ulugʻlash, ayniqsa, ayollar va bolalarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish keyingi yillarda izchil va tizimli tus oldi. Prezidentimizning shu yil 3-martdagi “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish boʻyicha qoʻshimcha tashkiliy-huquqiy choralar toʻgʻrisida”gi farmoni bu boradagi ishlar rivojida yangi bosqichni boshlab berdi.

## AYOLLAR VA BOLALAR HUQUQLARI – DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YOʻNALISHI



Munozat YOʻLCHIYEVA,  
senator

Mazkur farmonni shunchaki navbatdagi huquqiy qadam sifatida baholash notoʻgʻri boʻladi. Chunki ushbu hujjat jamiyatda ayol va bola shaʼni, qadr-qimmatini va xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan aniq strategik dasturdir. Unda davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va jabrlanuvchilarni qoʻllab-quvvatlashning zamonaviy yondashuvlari belgilab berildi.

Erta nikoh va masʼuliyat masalasi

Farmonda alohida eʼtibor nikoh yoshiga yetmagan shaxslar bilan haqiqatda nikoh munosabatlarga kirishish holatlarining oldini olishga qaratilgan. Erta nikoh — nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va maʼnaviy muammo. U qizlarning taʼlim olishi, kasb egallashi, jamiyatda oʻz oʻrnini topishiga jiddiy toʻsiq boʻladi.

Shu nuqtayi nazaridan, ota-onalarning oʻz voyaga yetmagan farzandlari taqdiri uchun masʼuliyatini oshirish, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish dolzarb vazifadir. Qonun ustuvorligi taʼminlangan joyda bolalar manfaatida birinchi oʻringa qoʻyiladi.



Munosabat

Ayniqsa, nikohlanuvchilarni “maishiy zoʻravonliksiz baxtli oilaviy hayotga tayyorlash” maxsus kurslariga bosqichma-bosqich toʻliq qamrab olish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Shu maʼnoda, qamrovni 2026-yilga 50 foiz, 2027-yilga 60 foiz va 2030-yilga 100 foizga yetkazish boʻyicha aniq koʻrsatkichlar belgilangan sohada natijaga yoʻnaltirilgan yondashuvni koʻrsatadi. Bu kurslar orqali yoshlarda nizolarni tinch hal etish, oʻzaro hurmat, tenglik va huquqiy madaniyatni shakllantirishga erishiladi. Eng muhimi, profilaktika orqali zoʻravonlikning ildiziga barham berish mumkin.

Zoʻravonlikka qarshi murosasiz kurash

Farmon ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zoʻravonlik holatlarining oldini olish tizimini takomillashtirish, sonini keskin qisqartirish hamda jabrlanuvchilarni qoʻllab-quvvatlashning taʼsirchan mexanizmlarini joriy etishni ham nazarda tutadi.

Bu yerda gap faqat jazo choralariga haqida emas, kompleks yondashuv haqida. Profilaktika, erta aniqlash, huquqiy va psixologik yordam, reabilitatsiya choralarini bir-biri bilan uygʻun holda amalga oshirish lozim. Davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalla tizimi oʻrtasidagi hamkorlik ayni shu maqsadga xizmat qiladi.

Jamiyatda zoʻravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish esa eng muhim vazifalardan biri. Zoʻravonlik “oilaviy ish” emas, balki jamiyat xavfsizligiga tahdid ekanini anglashimiz zarur.

Mazkur farmon ijrosini taʼminlashda parlament nazorati alohida ahamiyat kasb etadi. Qabul qilinayotgan qonunlar, amaliy dasturlar va hududlardagi holat tahlili doimiy eʼtiborimizda boʻladi.

Biz uchun eng muhim mezon qabul qilingan normalarning hayotda qanday ishlayotgani, ayol va bolalarning haqiqiy himoyasi taʼminlanayotganidir. Har bir murojaat, har bir holat ortida inson taqdiri turganini unutmashimiz kerak.

Ushbu farmon 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida qabul qilinganida ham oʻziga xos ramziy maʼno mujassam. Zero, hujjat xalqimizga taqdim etilgan yuksak huquqiy eʼtibor va ishonch ifodasi oʻlaroq, jamiyatimizda adolat, tenglik va hurmat tamoyillarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayol himoyalangan jamiyat barqaror jamiyatdir. Bolalar huquqi taʼminlangan mamlakat kelajagi mustahkam davlatdir. Oʻzagi, maqsad-mohiyati mana shu ikki jihatta qaratilgan farmon ijrosini taʼminlash esa barchamizning umumiy burchimiz va masʼuliyatimizdir.

Mazkur farmonni shunchaki navbatdagi huquqiy qadam sifatida baholash notoʻgʻri boʻladi. Chunki ushbu hujjat jamiyatda ayol va bola shaʼni, qadr-qimmatini va xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan aniq strategik dasturdir. Unda davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va jabrlanuvchilarni qoʻllab-quvvatlashning zamonaviy yondashuvlari belgilab berildi.

### Erta nikoh va masʼuliyat masalasi

Farmonda alohida eʼtibor nikoh yoshiga yetmagan shaxslar bilan haqiqatda nikoh munosabatlarga kirishish holatlarining oldini olishga qaratilgan. Erta nikoh — nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va maʼnaviy muammo. U qizlarning taʼlim olishi, kasb egallashi, jamiyatda oʻz oʻrnini topishiga jiddiy toʻsiq boʻladi.

Shu nuqtayi nazaridan, ota-onalarning oʻz voyaga yetmagan farzandlari taqdiri uchun masʼuliyatini oshirish, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish dolzarb vazifadir. Qonun ustuvorligi taʼminlangan joyda bolalar manfaatida birinchi oʻringa qoʻyiladi.

### Ongli va barqaror oilaviy munosabatlar

Hujjatda moliyaviy mustaqillikka erishgan, oila qurishga har tomonlama tayyor yoshlar oʻrtasida nikohni ragʻbatlantirish masalasi ham belgilab berilgan. Bu yondashuv oilani shoshma-shosharlik bilan emas, balki masʼuliyat, oʻzaro hurmat va tayyorgarlik asosida barpo etishni nazarda tutadi.



Asiya KUDAYBERGENOVA,  
Zangiota tumani Forobiy  
MFYdagi hokim yordamchisi,  
“Shuhrat” medali sohibi

Shu bois, soʻnggi yillarda mahalla tizimi jamiyatimizda kechayotgan islohotlarning hal qiluvchi boʻgʻiniga aylandi. Mahallaga qoʻshimcha kuch va imkoniyatlar taqdim etilyapti, vakolat ham, masʼuliyat ham quyi tizimga tushirilmoqda. Har qanday masala mahallaning oʻzida hal etilyapti, ijtimoiy yordam va xizmatlar koʻrsatish mahalla darajasigacha kirib bordi.

Kambagʻallikni qisqartirish, bandlikka koʻmaklashish, oilalar farovonligini taʼminlash, jinoyatchilikning oldini olishda mahalla katta kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Ana shunday muhim islohotlar jarayonida “mahalla yetiligi” tizimidagi hokim yordamchilarining roli ham tobora ortib boryapti.

Bugungi kunda mahallalardagi hokim yordamchilari aholini daromadli mehnatga jalb qilish, bandligini taʼminlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, mahallaning “oʻsish nuqtalari”ni aniqlab, drayver loyihalarni ilgari surish borasida faol ishlayapti. Natijada ishshizlik va kambagʻallikni kamaytirish, aholi orasida tadbirkorlik, yaratuvchilik, bunyodkorlik ruhini kuchaytirishga erishilmoqda.

Asiya KUDAYBERGENOVA,  
Zangiota tumani Forobiy  
MFYdagi hokim yordamchisi,  
“Shuhrat” medali sohibi

Shu bois, soʻnggi yillarda mahalla tizimi jamiyatimizda kechayotgan islohotlarning hal qiluvchi boʻgʻiniga aylandi. Mahallaga qoʻshimcha kuch va imkoniyatlar taqdim etilyapti, vakolat ham, masʼuliyat ham quyi tizimga tushirilmoqda. Har qanday masala mahallaning oʻzida hal etilyapti, ijtimoiy yordam va xizmatlar koʻrsatish mahalla darajasigacha kirib bordi.

Kambagʻallikni qisqartirish, bandlikka koʻmaklashish, oilalar farovonligini taʼminlash, jinoyatchilikning oldini olishda mahalla katta kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Ana shunday muhim islohotlar jarayonida “mahalla yetiligi” tizimidagi hokim yordamchilarining roli ham tobora ortib boryapti.

Bugungi kunda mahallalardagi hokim yordamchilari aholini daromadli mehnatga jalb qilish, bandligini taʼminlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, mahallaning “oʻsish nuqtalari”ni aniqlab, drayver loyihalarni ilgari surish borasida faol ishlayapti. Natijada ishshizlik va kambagʻallikni kamaytirish, aholi orasida tadbirkorlik, yaratuvchilik, bunyodkorlik ruhini kuchaytirishga erishilmoqda.

## XALQIMIZGA HALOLLIK VA SADOQAT bilan XIZMAT QILISH – FARZANDLIK BURCHIM

Mamlakatimizda mahallalar faoliyatini rivojlantirish boʻyicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Albatta, buning oʻziga xos ramziy maʼnosi, zarurati bor. Zero, mahalla xalq va davlat oʻrtasida bogʻliqlikni taʼminlaydigan, jamiyatdagi islohotlardan har bir inson bahramand boʻlishiga zamin yaratadigan maskandir.

### Dildagi gaplar

Masalan, oʻzim faoliyat yuritayotgan Zangiota tumanidagi Forobiy mahallasini olaylik. Bugungi kunda 1200 ga yaqin oiladan deyarli barchasining kichik boʻlsa ham tadbirkorlik loyihalarini bor. Hatto roʻzgʻor tashvishi, bola-chaga parvarishi bilan band boʻlib yudira oʻtirgan ayollar ham xonadonda tikuvchilik, pishiriq tayyorlash, hatto AT kabi zamonaviy sohalarda xizmat koʻrsatmoqda.

Oilaviy tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish orqali ularning daromadini koʻpaytiribgina qolmay, yangi ish oʻrinlari yaratishga ham erishyapmiz.

Tadbirkorlar oʻz faoliyatini kengaytirishi uchun kengroq joy kerak. Mahallamizda boʻsh turgan bino va yerlardan unumli foydalanib, ularga bu borada koʻmak beryapmiz. Umuman, bugungi kunga kelib, savdo-sotiq, ishlab chiqarish, tikuvchilik kabi yoʻnalishlarda 180 dan ziyod tadbirkorimiz elimizga xizmat koʻrsatmoqda. Bundan toʻrt yil ilgari mahallamizda bor-yoʻgʻi 4 ta tadbirkor boʻlgani eʼtiborga olinsa, islohotlar birgina mahalla tizimida qanchalik katta oʻzgarish yasaганиni sezish qiyin emas.

Faoliyatimda oʻrttirayotgan bunday ilgʻor tajribalarni mamlakatimiz boʻylab keng yoyishga hissa qoʻshayotganimdan mamnunman. Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashabbusi bilan shu yoʻnalishda tashkil etilgan loyihalarda faol qatnashib, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Namangan viloyatida xizmat safarida boʻldim. Ushbu hududlarda ham qandolatchilik va yarim tayyor mahsulotlar tayyorlash, uy tozalash xizmati kabi loyihalarimni aholi orasida targʻib etdim. Bu loyihalar kichik sarmoya bilan katta natijalarga zamin yaratga olishini mazkur hududlarda ham toʻla sinovdan oʻtkazdik. Hozir ushbu imkoniyatdan foydalanib, oilaviy tadbirkorlikni yoʻlga qoʻygʻan koʻplab ayollar koʻngʻiroq qilib, minnatdorlik bildiradi. Ularning yutuqʻidan cheksiz quvonaman. Bu meni yanada izlanishga daʼvat etadi.

Kamtaronla yutuqlarim yuksak eʼtirof etilib, “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganim hayotimdagi nurlı sahifa boʻldi. Menga bildirilgan ushbu ishonch va eʼtibor uchun samimiy minnatdorlik bildiraman. Mukofot nafaqat shaxsiy sharaf, balki zimmmanga yuklangan ulkan masʼuliyat hamdir. Bu eʼtirof meni yanada fidoyilik, halollik va sadoqat bilan xizmat qilishga undaydi.

## ZOʻRAVONLIKKA QARSHI TIZIMLI YONDASHUV – MAMLAKATIMIZNING QATʼIY POZITSIYASI

erta nikoh va 16 yoshgacha boʻlganlarning homiladorlik holatlaridan xabardor qilish imkonini beruvchi “Oʻsmir-signal” moduli yoʻlga qoʻyiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalariga tayan-gan bunday tizim huquqbuzarliklarning erta bosqichda aniqlanishi, bolalarni xavfli muhitdan oʻz vaqtida himoya qilish va idoralararo hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu tariqa davlat profilaktika, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini amalda qaror toptirmoqda.

Shu bilan birga, himoya orderi berilgan jabrlanuvchi xotin-qizlarning xavfsizligini taʼminlashda zamonaviy raqamli mexanizmlardan foydalaniladi. Xususan, ularning roziligi asosida aloqa vositalari (telefon, planshet va boshqa qurilmalar)ga ijtimoiy himoya milliy agentligining “SOS chaqiruv” funksiyasiga ega boʻlgan “my.ihma.uz” mobil ilovasi oʻrnatiladi. Bu mexanizm zoʻravonlik xavfi yuzaga kelgan holatda jabrlanuvchining zudlik bilan tegishli xizmatlarga signal berishi imkonini yaratadi.

Zoʻravonlik holatlarida vaqt hal qiluvchi omil ekanini hisobga olsak, “SOS chaqiruv” mexanizmi har bir daqiqaning ahamiyatini inobatga olgan holda ishlaydi. Mazkur ilovadan foydalanish faqat jabrlanuvchining roziligi

standartlarga mos ravishda ishlab chiqilgani bilan ahamiyatlidir.

Ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish maqsadida huquqiy boʻshliqlarni bartaraf etish va javobgarlikning aniq, samarali hamda adolatli tizimini shakllantirish koʻzda tutilmoqda. Xususan, ayollarni aynan jinsiy sababli qasddan oʻldirish — femitsid, oila aʼzolarini qasddan oʻldirish — familitsid kabi ogʻir jinoyatlarni alohida huquqiy toifa sifatida belgilash masalasi jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini toʻgʻri baholash va jazoning adolatli tayinlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, shaxsni irodasiga qarshi mumtazam taʼqib qilish — stalking, internet yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etiladigan kibersoʻravonlik, voyaga yetmaganlardan jinsiy maqsadlarda foydalanish hamda onlayn muhit orqali ishonchini qozonib, ularni noqonuniy harakatlarga jalb qilish — onlayn grumming kabi yangi shakldagi tahdidlarga nisbatan aniq javobgarlik choralarini belgilash taklif etilmoqda.

Xalqaro amaliyotda zoʻravonlikka qarshi kurashishga barqaror taraqqiyotning asosiy sharti sifatida qaralmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida gender tenglik va zoʻravonlikni

asosida amalga oshirilishi uning shaxsiy huquq va erkinliklariga hurmat tamoyili saqlanishini taʼminlaydi.

Hujjatga binoan, ayniqsa, erta nikoh bilan bogʻliq holatlarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish, maxsus tayyorgarlikdan oʻtgan tergovchilar va sudyalarni jalb etish kabi choralarni koʻllash amaliyoti yangi bosqichga olib chiqilmoqda.

Xalqaro tajriba ham ayollar va bolalarni zoʻravonlikdan himoya qilish masalasida faqat jinoyi jazv yetarli emasligini koʻrsatadi. BMTning Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyasi, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish toʻgʻrisidagi konvensiyasi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlar davlatlarni profilaktika, himoya va reabilitatsiya choralarini kompleks koʻrishga chaqirgan. Shu nuqtayi nazaridan ham mazkur hujjat ayni xalqaro

bartaraf etish alohida ustuvor yoʻnalish etib belgilangan. Mazkur farmon tufayli global maqsadlar milliy qonunchilik va milliy amaliyot bilan uygʻunlashtirilmoqda. Eng muhimi, ushbu hujjat jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish, yoshlarda masʼuliyat va ongli munosabotni shakllantirishga xizmat qiladi. Erta nikohning salbiy oqibatlari, zoʻravonlikning inson taqdiriga taʼsiri haqida keng tushuntirish ishlari oʻtkazilishi belgilab qoʻyilgani bu sohada mafkuraviy yondashuv ham kuchayganidan dalolat beradi.

Mazkur farmon ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish sohasida yangi davrni boshlab berdi. U Konstitutsiya normalari, milliy qonunchilik, xalqaro majburiyatlar va ilgʻor xorijiy tajribani uygʻunlashtirgan holda kompleks, tizimli hamda insonparvar mexanizmini shakllantirmoqda. Bu esa mamlakatimizda har bir ayol va har bir bola oʻzini himoyalangan, qadrlangan va davlat eʼtiborida deb his qilishini taʼminlaydi.



Izhor

Prezidentimiz qaroriga muvofiq, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori boʻlish biz uchun ulkan sharaf va ayni paytda katta masʼuliyat demak. Bunday yuksak eʼtirof, ragʻbatni yurtimizda faol va isteʼdodli xotin-qizlarning oʻz salohiyatini namoyon etishi, jamiyatda munosib oʻrin egallashiga qaratilayotgan eʼtibor va gʻamxoʻrlikning yorqin ifodasi deb bilamiz.



USHBU MAQOLANI  
QORAQALPOQ TILIDA  
HAM OʻQISH UCHUN  
QR-KODNI SKANER  
QILING!

## YUKSAK EʼTIROF – BIZ UCHUN KATTA ISHONCH VA MASʼULIYAT

Berdaq nomidagi Qoraqalpogʻ davlat universiteti talabalari sifatida ushbu mukofotga sazovor boʻlganimizdan nihoyatda faxrlanamiz. Chunki universitetimiz bugungi kunda nafaqat Qoraqalpogʻiston, balki butun mamlakatimiz miqyosida ilmiy salohiyati, zamonaviy taʼlim muhiti va iqtidorli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash tizimi bilan alohida nufuzga ega.

Universitetdagi bu sharoit, ustozlarning doimiy eʼtibori va qoʻllab-quvvatlovi bilim olishga intilishimizni yanada kuchaytirdi. Ayniqsa, yoshlar tashabbuslarini ragʻbatlantirish, ilmiy, ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan muhit shaxsiy rivojlanishimizda muhim omil boʻlayotir.

Bugungi natijalarimiz faqat shaxsiy muvaffaqiyatimiz emas, avvalo, universitetimiz professor-oʻqituvchilari, ustozlarimiz va bizni har tomonlama qoʻllab-quvvatlab kelayotgan jamoaning mehnati samarasi deb hisoblaymiz. Bizga bildirilgan ishonch, yaratilgan imkoniyatlar va berilgan bilimlar ushbu yuksak mukofot sari yetaklagan eng muhim omillar boʻldi.

Bir universitetdan bir vaqtning oʻzida ikki talabaning Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori boʻlishi biz uchun alohida faxrdir. Bu holat universitetimizda qizlarning taʼlim olishi, liderlik qobiliyatini rivojlantirish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun yaratilgan keng imkoniyatlarning amaliy natijasi deb bilamiz.

Shu kungacha universitetimizdan 10 nafar iqtidorli qiz ushbu nufuzli mukofotga erishganidan faxrlanamiz. Kelgusida egallagan bilim va tajribamizni yurtimiz ravnaqi, ilm-fan taraqqiyoti hamda jamiyat rivojiga munosib hissa qoʻshishga safarbar etamiz. Bizga ishonch bildirgan Prezidentimizga, universitet rahbariyatiga, ustozlarimiz va ota-onalarimizga samimiy minnatdorlik bildiramiz. Ushbu eʼtirof bizni yanada koʻproq oʻqish, izlanish va Vatanimiz taraqqiyoti yoʻlida xizmat qilishga undaydi.

Dilnoza ERIMBATOVA,  
Indira SATNIYAZOVA,  
Zulfiya nomidagi davlat mukofoti  
sovrindorlari

Yangi O‘zbekiston bunday natijaga o‘tgan 10 yil davomida tinimsiz mehnat, izlanish orqali erishdi. Buning qanchalik katta natija keltirayotganini Surxondaryodagi islohotlar, yangi belgilangan marralar misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Prezident tashrifidan so‘ng

# MENING MANGU HAYRATIMSAN, SURXONDARYO!

## Boshlanishi 1-betda

Jarqo‘rg‘on tumanining katta qismi mana shunday cho‘ldan iborat. Shu bois, suvsiz cho‘lda asosan cho‘ponlar yashagan. Qum barxanlaridan iborat dashtda qo‘ra tiklash ham oson emas. Chunki imorat uchun zarur barcha narsa, hatto paxsadevor uchun tuproqni ham tashib kelish kerak.

Tumandagi “Yangi O‘zbekiston” massivi barpo etilgan joy yaqin-yaqingacha cho‘ponlar yashaydigan ovloq manzil edi. Mahalla nomi ham shunga xos tarzda Qorayantoq deb atalardi. Hozir butunlay zamonaviy qiyofaga kirgan mahallani o‘ziga xos mo‘jaz shaharcha, desak mublag‘a bo‘lmaydi. Biz o‘tirgan mashina massiv hududiga yaqinlashar ekan, avvalo, mahallaning yashil “belbog‘i”ga duch keldik. Tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etilgan yashil maydonda turfa nihollar qator saf tortgan.

— Mana shu ish puxta reja bilan qilinibdi, — deydi hamrohlarimizdan biri ko‘chatlarga ishora qilib. — Yozda cho‘lning issiq yuzni kuydiradi. Daraxt ko‘p bo‘lsa, massivga garmisel “bostirib” kirolmaydi-da!

— Mahallaga yetib olaylik, bunga o‘xshash rejali ishlarning ko‘pini ko‘rasiz, — gapga qo‘shiladi yoshi ellikni qoralagan haydovchimiz Akbar aka. — Katta shaharlarda qanday sharoit bo‘lsa, hammasi shu yerning o‘zida bor.

Shu chog‘ ko‘p qavatli uy bo‘lganidan keyin shahar sharoiti bo‘lishi aniq-ku deb o‘ylaysiz. So‘ng Prezidentimiz tashrif buyurgan massivda zamonaviy o‘quv markazi borligi, yangi maktab qurilgani yodga tushadi. Ha, endi har bir mahallada kattami-kichik o‘quv markazi bor, maktablarning zamonaviy qiyofaga kirishi yangilik emas-ku. Ammo mahalla bilan yaqindan tanishar ekanmiz, bunday o‘ylar xato ekanini, ming bora eshitgandan ko‘ra, bir marta kelib ko‘rish afzaligini anglaymiz.

Ayni dam mahallaga “Yangi O‘zbekiston” nomi bejiz berilmaganiga amin bo‘lamiz. Chunki massivdagi har bir jihat yangi O‘zbekiston qiyofasiga, undagi islohotlar ruhiga uyg‘un. Masalan, mamlakatimizda muammolarni joyida hal etishga jiddiy e‘tibor berilyapti. Buning uchun mahalla tizimi bosqichma-bosqich, ammo qisqa muddatda tubdan isloh etildi. “Yangi O‘zbekiston” MFYda mana shu ishlarni to‘g‘ri tashkil etish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

— Shu mahallada qirq yildan beri yashayman, — deydi mahalla raisi Elmurod Aliyiyorov. — Biz ham mol bogib, qirlarga qo‘y haydab katta bo‘lganmiz. Oxirgi uch yilda mahallamiz butunlay o‘zgarib, shaharchaga aylandi. Mahallamizning binosi yo‘q edi. Hali u, hali bu tadbirkorning binosida ijarada turardik. Tez-tez ko‘chishga majbur edik. Mahallamiz uchun barcha shart-sharoitga ega zamonaviy bino qurib berildi. U yerda “mahalla yettilligi” ishlashi, ochiq, shaffof tizimdan samarali foydalanishi uchun zarur texnik imkoniyatlar yaratilgan. Ancha yillardan beri mahalla tizimida turli lavozimlarda ishlaganman. Hozirgidek sharoit, imkoniyat hech qachon bo‘lmagan. Mahalla ahlini band qilish uchun shu yerning o‘zida ko‘plab tadbirkorlik subyektlari ishga tushirildi. Savdo va xizmat ko‘rsatish markazlari ochildi. Bunday imkoniyatlardan aholi juda mamnun.

Mahallada 68 ta ko‘p qavatli uy qurildi. Ulardagi 1,5 mingta xonadonga aholi ko‘chib kirdi. Rejaga ko‘ra, ko‘p qavatli jami 116 ta uy qurilishi kerak. Hozir qurilish davom etyapti. Qolgan uylar ham tez orada bitadi. Muhimi, uylarga kommunal xizmat ko‘rsatishdagi barchasi markazlashgan tizimga ega. Bundan tashqari, poliklinika, 180 o‘rinli bog‘cha, 330 o‘rinli maktab qurildi. Ilgari bunday sharoit yo‘q edi. O‘quvchilar qishda sinfxonada o‘tirib sovuq yerd.



Hozir zamonaviy qozonxonasi bor. Xonalar issiq, zamonaviy o‘quv qurollari, zarur texnik vositalar bilan to‘liq jihozlangan. Ko‘p qavatli uylar uchun ikkita markazlashgan qozonxona qurilgan.

Mahallaning infratuzilmasi ham havas qiladigan darajada. Ilgari bu joylarda chiroq, yorug‘lik yo‘q edi hisob. Hozir ko‘chalar charog‘on. Xavfsiz yo‘lakni aytmayisizmi! Kechki paytlarda yoshlar, nuroniy otaxon va onaxonlar shu yo‘lak bo‘ylab sayrga chiqadi. Endi shaharga borish shart emas, hamma sharoit shu yerning o‘zida muhayyo qilindi.

Yangi O‘zbekistonni bunyod etish bilan birga oldimizga Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yishdek katta marrani olganmiz. Buning uchun esa, albatta, zamonaviy bilimlarni egallagan, ruhiyati milliy tafakkur bilan boyigan avlod zarur. “Yangi O‘zbekiston” massivida buning uchun ham yetarlicha sharoit yaratilgan. Nafaqat yaratilgan, balki boshqarlarga namuna bo‘ladigan jihatlar ham bor. Birgina maktabdan misol, ushbu muassasa davr talablariga to‘la javob beradi. Muhimi, mamlakatimiz siyosatiga mos ravishda maktabda barcha uchun teng sharoit yaratilgan. Xususan, nogironligi bo‘lgan bolalar uchun zarur imkoniyatlar yaratilib, inklyuziv ta‘lim yo‘lga qo‘yilgan. Maktab hovlisiga kirib borar ekanmiz, o‘quvchi qizlarga duch keldik. Ulardan biri maxsus aravachada, sinfdoshi esa uning yonida quvnoq ohangda nimadir haqida suhbatlashib ketardi. Tasodifan o‘qituvchilardan ham avval bizga yo‘liqqan bu o‘quvchilar tashrifida Prezidentimiz bilan uchrashgan, birga suratga tushgan o‘quvchilar ekan.

— To‘g‘iz yil uйда tahsil olgandim. Maktabga kelganimga bir yildan oshdi. Bu yerda ko‘p do‘stlar topdim, — deydi maktab o‘quvchisi Feruza Jumaqulova. Uning gapini sinfdoshi tasdiqlab, suhbatga qo‘shiladi.

— Feruza maktabimizga kelganiga bir yildan sal oshdi. Hozir davslarni birga o‘zlashtiramiz. Tanaffusda hovlida aylanib gurgunglashamiz. Unga qarashish, kutib olib, kuzatib qo‘yish uchun maxsus o‘qituvchi ham tayinlangan, — deydi sinfdoshi Mushariy Karimova. — Kelgan paytlarida o‘quvchilar bilan unchalik chiqisha olmasdi. Mana, hozir darslarni yaxshi o‘zlashtirib, biz bilan yaqin dugona bo‘lib ketdi. Hatto yaxshi o‘qigan uchun shu yil ona tili fanidan o‘tkazilgan olimpiadada, bilimlar bellashuvida ham qatnashdi.

Ushbu maktabda hozir 500 dan ziyod o‘quvchi ta‘lim olmoqda. Nogironligi bor bolalarni zamonaviy standartlar asosida o‘qitish uchun alohida yondashuvlar joriy etilgan. Maktabda 50 ga yaqin maxsus mutaxassis va pedagog faoliyat yuritmoqda. Maktab hovlisi, yo‘laklar, o‘quv xonalari, ovqatlanish, muolaja xonasi hamda sport zali zarur sharoitlar bilan ta‘minlangan. Mana shuning o‘ziyoq ijtimoiy davlat tamoyilini to‘la ifoda etadi. Muhimi, maktabda bilim olishning zamonaviy metodlari joriy etilmoqda.

— Maktabimiz 2023-yil sentabr oyidan buyon faoliyat yuritmoqda. U 330 o‘ringa mo‘ljallangan. Inklyuziv ta‘lim ham yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu ta‘lim ilk yo‘lga qo‘yilganida uddalay olarmikanmiz degan hadik bor edi, — deydi 66-maktab direktori Shahzoda Kamolova. — Chunki nogironligi bor bolajonlar bilan ishlash, ularning ko‘ngliga yo‘l topish oson emas. Hozir to‘rtta shunday o‘quvchimiz sog‘lom bolalar singari jamiyatga qo‘shilib ketdi. Bundan hamma pedagoglar va ota-onalar, o‘quvchilar mamnun. Prezidentimiz maktabimizga tashrif buyurib, yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Sun‘iy intellekt, raqamlashtirish bilan bog‘liq yo‘nalishlarning yoshlar hayoti va kelajagi uchun

## SURXONDARYO!



“Ayni dam mahallaga “Yangi O‘zbekiston” nomi bejiz berilmaganiga amin bo‘lamiz. Chunki massivdagi har bir jihat yangi O‘zbekiston qiyofasiga, undagi islohotlar ruhiga uyg‘un.”

naqadar muhim ekaniga e‘tibor qaratdi. Oldimizga yangi vazifalar qo‘yib, bizga juda katta ishonch bildirdi.

Gap ta‘lim haqida ketar ekan, mahallaning yana bir o‘ziga xos jihatini aytish zarur. Ya‘ni mahallada xorijiy tillar va axborot texnologiyalari o‘quv markazi ish boshlagan.

— Xorijda o‘qib kelib, tumanimiz markazida kichik o‘quv markazi ochishi bilan faoliyat boshlaganman, — deydi o‘quv markazi rahbari Yigitali Abdullayev. — Yurtimizga qaytib kelib ish boshlashimga yangi O‘zbekistondagi islohotlar sabab bo‘lgan. Shundan keyin o‘quv markazimizni asta-sekin kengaytirib bordik. 2025-yilda 6,5 milliard so‘g‘im hisobiga ushbu massivda o‘quv markazi barpo etdik. Majmuamiz 400 o‘ringa mo‘ljallangan. Unda yiliga 2 mingdan ortiq yosh ta‘lim olishi, loyihalar ustida ishlashi

mumkin. Markazimizda 200 ga yaqin o‘quvchi kompyuter savodxonligi va “front-end” yo‘nalishlarini muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikat oldi. Bundan tashqari, 150 ga yaqin o‘quvchimiz IELTS imtihonlarida B2 va undan yuqori natijalarni qayd etdi. Markazda 20 ga yaqin mutaxassis faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari markazimizga tashrif buyurib, sharoitlar bilan tanishdi. Bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, o‘quv markazlari uyushmasini tashkil etish taklifi bildirildi. Bu o‘quv markazlariga juda katta imkoniyatlar yaratadi. Ular bir-biri bilan bevosita tajriba almashish imkoniga ega bo‘ladi. Yutuqlar rag‘bat olib, respublika miqyosida ommalashtiriladi. Bularning barchasi yurtimizda ilm-fanni rivojlantirish uchun bajarilmoqda. Yana bir muhim jihat. Prezidentimiz yoshlarga xorij tillarini o‘rgatish, zamonaviy bilimlarni berish bilan birga ularni milliy urf-odat va qadriyatlar ruhida, vatanparvar qilib tarbiyalash vazifasini ham qo‘ydi. Ochig‘i, bu jihat bizni jiddiy o‘ylashga, o‘ziga xos tayyorgarlik ko‘rishga undadi. Chunki milliy tafakkumi yoshlar ongiga chuqur singdirish o‘qituvchilardan shunga munosib tayyorgarlikni, maxsus o‘quv qo‘llanmalar yaratishni talab etadi. Hozir shu kabi muhim vazifalar ijrosi haqida izlanishni, amaliy harakatlarni boshladik. Xususan,

axborot texnologiyalari yo‘nalishida 500 dan ortiq mutaxassis tayyorlash, 50 ta yangi ish o‘rni yaratish va xususiy maktab ochish harakatidamiz.

Yangi O‘zbekistondagi yana bir muhim islohotlardan biri, hech shubhasiz, aholi xavfsizligi, tinch va osuda mahalla muhitini yaratish masalasidir. Mahallada bu jihatga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, mahalla hududi kattaligi hisobiga ikki nafar profilaktika inspektori faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, massivda “mahalla muhofazasi” xizmati tashkil etilgan. Endi mahalla raisi va boshqa mas‘ullar kuz-qish mavsumida xavfsizlik masalasini uyma-uy yurib, aholiga tushuntirishga majbur emas. Ular o‘zining asosiy vazifasi — aholi masalalarini hal etish bilan shug‘ullanadi. Xavfsizlik masalasi esa mahallaga birkiritilgan inspektor zimmasida.

— Hozir mahallamizda 2020 ta xonadon bor. Ularda 8 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi, — deydi profilaktika inspektori Og‘abek Allahberdiyev. — Avval hududdagi osoyishtalikka faqat mahalla raisi va profilaktika inspektori mas‘ul deb qaralardi. Hozir nafaqat mahalla, balki tuman, viloyat, respublika darajasidagi rahbarlar ham quyi bo‘g‘inga tushib, fuqarobay, xonadonbay ishlarni tashkil etmoqda. Natijada mahallamizda so‘nggi ikki yilda jinoyat sodir bo‘lmadi, “yashil” toifaga kirdi. Mahalla hududida 78 ta kamera o‘rnatilgan. Shundan 44 tasi yuzni tanib olish imkoniga ega, 4 tasi avtomatik ro‘yxatga oladigan, 30 tasi kuzatuv kameracidir. “Xavfsiz yo‘lak”, “xavfsiz xonadon” tamoyillari ham amalda. Qo‘riqlash xizmati ham yo‘lga qo‘yilgan.

Yangi O‘zbekistondagi yana bir muhim islohot bu, hech shubhasiz, aholi daromadini oshirish, kambag‘allikni qisqartirishdir. Qolaversa, aholiga sifati xizmat ko‘rsatish,

ijtimoiy himoya masalasi ham muhim. Mazkur masalalarga ham mahallaning o‘zida yechim beradigan loyihalar ishlab chiqilgan. Xususan, 7 ta mikromarkaz hamda 5 ta savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish obyekti qurilgan. “Yangi yoshlar” boshqaruv servis kompaniyasi ish boshlagan. E‘tiborlisi, kompaniya tumandagi 161 ta ko‘p qavatli uyga xizmat ko‘rsatadi. Shundan 54 tasi mazkur massivda joylashgan. Bu ham qo‘shimcha ish o‘rni, ham sifati xizmat



degani. Hududdagi ko‘p qavatli uylar tomiga 5-15 kilovattli quyosh panellari o‘rnatilgani esa tabiatni asrash, “yashil” energiyaga o‘tishdagi islohotlarga uyg‘undir.

Bundan tashqari, ichimlik suv, issiqlik tarmoqlari, 3 kilometrga yaqin gaz quvuri tortilgan. Shu yerda 250 kilovattli transformator o‘rnatilgan. Qolaversa, 4,5 gektarga manzarali va mevali daraxtlar, dasht hududidagi 300 gektar maydonga esa saksovol o‘simliklari ekilgan. Muhimi, kelusida bu yerda yana 50 ga yaqin uy quriladi. Jumladan, joriy yilda yana 14 ta (280 xonadonli) ko‘p qavatli uy-joy, yangi yo‘llar qurilishi, ko‘kalamzorlashtirish hamda istirohat bog‘i barpo etilishi rejalashtirilgan. Ayni damda qurilish ishlari davom etmoqda.

Mahalla bilan tanishib, uning yashil yo‘laklari, gulga burkangan ko‘chalari oralar ortga qaytishga shaylanar ekanmiz, yuzidan nur yog‘ilib turgan nuroniyiga duch keldik. Otaxon epchillik bilan bizdan oldin salom berdi.

— Bizdan ham gap oling-da, uka, rahmatimizni, shukronamizni e‘bilsin, — deydi mehnat faxriysi Abdullaxon Tursunov jurnalist ekanimizni bilgach. — Mahallamiz aholisi shaharga va bozorni izlab uzoqqa borishga hojat yo‘q. Bir qadam qo‘ying, hammasi muhayyo. Ilgari bunday ovloq joylarda mana shunday shaharcha quriladi, desa birov ishonmasdi. Eshittingizmi, Toshkentdan keladigan poyezd yo‘li ham zamonga moslanarkan. Endi 14 soatda keladigan poyezd 7 soatda yetib kelarmiz. Poyezdimiz ham islohotlarimizda tezlik olarkan deb xursand bo‘lib o‘tirmiz.

Xatxonning duosini olib ortga qaytarkanmiz, hamrohlarimiz yuzida mamnunlik balqiydi.

Ular ham biz kabi bu maskandan olis ketgisi kelmayotganday ortiga, qum barxanlari aro qad rostlagan baland binolar, zamonaviy tadbirkorlik subyektlaridan ko‘z uzmaydi. Ortimizdan “Yashil makon” loyihasi doirasida ekilgan nihollar xo‘shlashib qo‘l siltayotganday ko‘rinadi.

Yo‘ldoshlarning suhbatlari beixtiyor Prezidentimizning Surxondaryoga tashrifi, shu munosabat bilan boshlangan katta islohotlarga ulanib ketadi. Kimdir vohta katta sanoat maydoniga aylanib borayotganini eslaydi. O‘tgan yili viloyat yalpi hududiy mahsulot hajmi 63,7 trillion so‘mga yetganini maqtanadi. Yirik sanoat korxonalari qariyb 30 taga, kichik korxonalar 4820 taga yetkazilgani, ulardagi mahsulotlar xorijga ham sotilayotgani qizg‘in muhokama mavzusiga aylanadi.

“Ey, eksport mayli, lekin chekka bir viloyatga 2,1 milliard dollar qiymatidagi xorijiy investisiya o‘zlashtirilganiga nima deysiz”, gapni ilib ketadi yana bir hamrohimiz. U gapining tasdig‘i uchun davlatimiz rahbari tashrif davomida umumiy qiymati 7,1 milliard dollar bo‘lgan 44 ta loyihani ishga tushirganini ham eslaydi.

— Bularning barchasi ish o‘rni, daromad, Surxondaryo uchun pul degani, — deydi og‘ir-bosiq bo‘lib kelayotgan haydovchimiz. — Menimcha, ichimlik suv esdan chiqmaydigan ish bo‘ldi. To‘palang suv omboridan Termizgacha toza ichimlik suvni olib kelish tarixiy ish!

Tag‘in gap tomorqa maktabiga ulanadi. Endi hamrohlar dehqonlar ham ilm bilan ish ko‘rish kerak ekan, Surxondaryoda bu borada katta imkoniyatlar borligini muhokama qiladi. Yeldek ketib borayotgan mashina oynasidan tashqariga qaraymiz. Ikki yil baland qum barxanlari. Ular sahradagi karvon yo‘lini eslatadi. Necha asrlar oldin, Buyuk ipak yo‘lidan avval ham bu yerda karvon yo‘llari bo‘lgan. Ulardan biri “Lojvard yo‘li”dir.

Bronza davriga (mil. avv. III-II ming yilliklar) oid bu yo‘lning bir tarmog‘i Badaxshon,

Baqriya va Marg‘iyona hududlarini Xorazm, So‘g‘d, Markaziy Qozog‘iston va Ural bilan, yana bir tarmog‘i esa Baqriya va Marg‘iyonani Mesopotamiya bilan bog‘lagan. Yo‘l nomi Badaxshon lojuvardi bilan bog‘liq. Ana shu yo‘l qadim Termiz rivojiga hissa qo‘shgan. Yoki Termiz tarmog‘i etgan shahar bo‘lgani uchun karvon yo‘li shu hududdan o‘tgan. Bu ikkisi birbiriga chambarchas bog‘liq.

Ehtimol, ikkinchi taxmin haqiqatga yaqin. Zero, bugun ham yangi O‘zbekistondagi islohotlar, keng imkoniyatlar dunyo ahlini Markaziy Osiyoga chorlamogda. Bu esa bizni lojuvard kabi zamonaviy karvon yo‘liga munosib hissa qo‘sha olish salohiyatimiz borligini anglatadi.

Yangi O‘zbekiston bunday natijaga o‘tgan 10 yil davomida tinimsiz mehnat, izlanish orqali erishdi. Buning qanchalik katta natija keltirayotganini Surxondaryodagi islohotlar, yangi belgilangan marralar misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda shoir Shodmonqul Salomning quyidagi misralari yodga tushadi:

Hazrat Sulton ko‘qgisida erigan qor,  
Termizniyning ziyoratin qilar bajo.  
Ikki tog‘ning orasida bir osmon bor,  
Ko‘kragimni to‘ldirgandir o‘shal havo.  
Bobotog‘dan Boysuntoqqa uchar lochin:  
Mening mangu hayratimsan, Surxondaryo!

**Boboravshan G‘OZIDDINOV,  
Sharvar TO‘RAYEV,  
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari**

4

JARAYON

2026-yil 5-mart, 44-son

O'zbekistonda 2017-yildan buyon bozorlarni liberallashtirish va boshqaruvni yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar tufayli barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qoldi. 2023-yilda yalpi ichki mahsulot (YIM) kuchli tashqi talab, iste'mol va investitsiyalar o'sishi hisobiga 6 foiz oshdi.

YANGI O'ZBEKISTON

Tahlil

YANGI INNOVATSION G'OYA  
VA ERKIN BOZORGASOSLANGAN IQTISODIYOT



**Sarvar MAHMUDOV,**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti huzuridagi**  
**Davlat siyosati va boshqaruvi**  
**akademiyasi tadqiqotchisi**

**Davlatimiz rahbari 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida: “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”, deya alohida ta'kidlagan edi.**

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish jarayoni nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyatga ega. Har bir davlat rivojning asosiy poydevori uning iqtisodiyotidir. Jahon bozoridagi yetakchi davlatlar bilan raqobatbardosh bo'la olish uchun mamlakatning import va eksport darajalari yuqori bo'lishi lozim.

Sababi faqatgina import hajmi oshsa, davlat byudjetiga katta miqdorda zarar yetishi mumkin va aksincha holatga duch kelsa, ya'ni eksport hajmi haddan tashqari oshib ketsa, bu davlatning ichki bozoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli ancha yuqori.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, eng muhimi, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma'qul ish uslubi tanqidiy qayta ko'rib chiqildi. Amaliy natijadorlik, inson manfaat va yana bir bor inson manfaat iislohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

So'nggi yillarda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini liberallashtirish va global iqtisodiy maydonga integratsiya qilish uchun keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi. Ushbu islohotlar nafaqat ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish, balki xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirishga qaratilgan. Shuningdek, davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va byudjet daromadlarini ko'paytirish yo'nalishlarida ham sezilarli o'zgarishlar qilindi.

Mamlakatning strategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va yosh aholi soni iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omillardan. Biroq iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish va rivojlanishni davom ettirish uchun qator muammolarni hal etish zarur. O'zbekiston yer osti boyliklari, xususan, gaz, neft va minerallarga boy mintaqada joylashgan. Ushbu resurslar mamlakatning iqtisodiy o'sishida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Bu, o'z navbatida, yangi ish o'rnlari yaratish va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish uchun imkoniyatlar beradi. Qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sohalarini diversifikatsiyalash dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Hukumatning xorijiy



investitsiya jalb qilishga qaratilgan siyosati mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash va yangi texnologiyalarni joriy etishga katta ta'sir qiladi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham boshqa ustuvor vazifalar qatorida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlari barqaror o'sishiga erishish, raqamli iqtisodiyotni drayver sohaga aylantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy resurslarni ko'paytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish, eksport salohiyatini oshirish choralarini ko'zda tutilgan.

Moliyaviy barqarorlik moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga, moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi

emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi asosi hisoblanadi.

Qachonki banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari iqtisodiy tuzilmalarning bir maromda ishlashini ta'minlab, iqtisodiyotdagi ishtiroki va uning o'sishi uchun zarur moliyaviy investitsiyalar taqdim eta olsagina moliyaviy tizim barqaror hisoblanadi. Aks holda, beqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta'sir ko'rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi va kutilganidan ziyod xatarga olib kelishi, bandlik qisqarishi va iqtisodiy faollik susayishi mumkin.

Moliyaviy beqarorlik sharoitida moliya tizimi iqtisodiyot uchun zarur moliyaviy xizmatlarni taqdim eta olmaydi. Masalan, yirik moliya tashkilotidagi qiyinchiliklar moliyaviy beqarorlikni yuzaga keltirishi ehtimoli bor. Bundan tashqari, bitta muassasadagi

muammalar banklararo operatsiyalar tufayli tizimning bir-biriga o'zaro qattiq bog'langan boshqa tashkilotlariga ham tarqalishi mumkin. Muassasalarning umumiy faoliyati butun moliya tizimi uchun xavfli, ya'ni tizimli xavfli yuzaga keltirishi, ishonchli bo'lib tuyulgan alohida tashkilotni ham moliyaviy beqarorlikka olib kelishi hech gap emas.

O'zbekistonni 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasida milliy barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida qilinadigan ishlar belgilab olingan. Xususan, bozor iqtisodiy tizimiga o'tishni tezlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy himoyaning samarador mexanizmlarini joriy qilish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, ekologik siyosatni to'g'ri olib borish kabi vazifalar qo'yilgan.

BMTning hamkorlik dasturiga asosan, 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari har bir shaxsning qiziqishini inobatga olish, inson huquqlarini ta'minlash, gender tenglik va ayollar uchun imkoniyatlarning kengaytirilishi, tashqi ta'sirlarga chidamlilik, barqarorlik, hisobdorlik prinsiplari asosida amalga oshirilishi lozim.

O'zbekistonda 2017-yildan buyon bozorlarni liberallashtirish va boshqaruvni yaxshilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar tufayli barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qoldi. 2023-yilda yalpi ichki mahsulot (YIM) kuchli tashqi talab, iste'mol va investitsiyalar o'sishi hisobiga 6 foiz oshdi. Hukumat 2030-yilga kelib, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning 10 foiz o'sishini talab qiladigan yuqori o'rta daromadli maqomini olishni maqsad qilgan. O'zbekiston iqtisodiyoti tabiiy resurslar, xususan, oltin eksportiga bog'liqligicha qolmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi kengayishda davom etib, yalpi qo'shilgan qiymat (YQQ) 41,6 foizdan 43,4

foizga oshdi, axborot va aloqa xizmatlari esa 24,2 foiz eng yuqori o'sishni ko'rsatdi. Mehnat bozori ushbu siljishlarni aks ettiradi, ish bilan bandlikning eng yuqori foiz o'sishi axborot-kommunikatsiya xizmatlarida qay etilgan.

Suvdan va tabiiy gazdan samarasiz va noto'g'ri foydalanish uzoq muddatli barqarorlikka tahdid tug'dirayotgani qatorida ekologik barqarorlik ham tashvishga solmoqda. Taraqqiyotni davom ettirish uchun O'zbekiston islohotlarni chuqurlashtirishi, xususi sektorni mustahkamlashi, inson kapitali va barqaror rivojlanishga sarmoya kiritishi kerak.

O'zbekiston 2017-yildan boshlab iqtisodiy islohotlar va liberalizatsiya yo'nalishida katta qadamlar tashlab, iqtisodiyotning ochiqligi va xalqaro integratsiyasini kuchaytirishga harakat qilmoqda. Ushbu jarayon mamlakatning global iqtisodiyotga integratsiyasiga turki bo'ldi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishga intilish, mintaqaviy va global savdoni rag'batlantirish, iqtisodiy diplomatiyani rivojlantirish kabi chora-tadbirlar O'zbekistonning iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirdi. Bundan tashqari, yangi tashqi savdo siyosati, ya'ni sarmoyalarni jalb qilish va xorijiy bozorlarda o'z mahsulotlarini taklif etish mamlakatning iqtisodiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonning Rossiya, AQSH, Xitoy, Turkiya va boshqa mamlakatlardan bilan iqtisodiy aloqalari yanada mustahkamlandi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan tashqi siyosati mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish va global iqtisodiyotdagi o'mini oshirishga yordam beradi.

Qisqacha aytganda, har qanday iqtisodiyotning jadal rivojlanishida islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning samarasi har doim aholi turmush tarzida qay darajada aks etishi esa taraqqiyot jadalligini belgilab beradi.



## Kun mavzusi

**Bugun O'zbekiston urbanizatsiyaning yangi, hal qiluvchi bosqichiga kirib bormoqda. Aholi sonining yil sayin o'sishi, mehnat resurslarining shaharlar tomon yo'nalishi va iqtisodiy faollikning asosan markazlarda jamlanishi uy-joy siyosati va shaharsozlikka an'anaviy yondashuvlar samara bermasligini ochiq ko'rsatmoqda.**

Mamlakatimizning iqtisodiy imkoniyati kengayib, aholi turmush sharoiti yaxshilanayotgani bois, uy-joyga talab yildan yilga oshmoqda. Muhimi, urbanizatsiya va uy-joy qurilishida yangicha, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish tanlov emas, obyektiv zaruratga aylandi. Aholi nufusining jadal o'sayotgani, yoshlar ulushining yuqoriligi, ichki migratsiyaning kuchayishi shaharlarga yildan yilga qo'shimcha bosim yuklamoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda o'rtaacha aholi o'sish tendensiyasi yillik 2 foizni tashkil etmoqda. Agar bu jarayon ilimiy asosda rejalashtirilmasa, infratuzilma yetishmasligi, transport va ekologiya muammolari, ijtimoiy tengsizlik kuchayishi mumkin. Yangicha urbanizatsiya siyosati aynan shu xavflarni bartaraf etishga qaratilgan.

Endi shaharlar qaysi tomonga kengaysa bo'ladi degan mantiq bilan emas, balki qay tarzda barqaror rivojlanadi degan yondashuv asosida rejalashtirilmoqda. Ayni maqsaddan kelib chiqib, urbanizatsiya va uy-joy siyosati O'zbekistonda strategik transformatsiyaga aylandi. Bu boradagi maqsadli va samarali siyosat davlat uchun uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Iqtisodiy o'sishni barqarorlashtiradi va aholi hayoti sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Urbanizatsiya bugun faqat shaharlarning geografik hajmi yoki aholi sonining ko'payishi emas, balki infratuzilma, transport, ijtimoiy xizmatlar, ekologiya va zamonaviy shahar muhitini kompleks rivojlantirish jarayonidir. Iqtisodiy jihatdan urbanizatsiya katta konsentratsiya effektini yaratadi. Shahardagi mehnat bozori kengayib, sanoat, xizmat ko'rsatish, logistika, moliya, raqamli va kreativ sektorlar tez rivojlanadi. Aholi va biznesning yuqori zichligi xarajatlarni kamaytiradi, bilim va texnologiyalar almashinuvini tezlashtiradi. Mehnat unumdorligini oshiradi va tadbirkorlik faoliyatini kengaytiradi. Davlat uchun bu investitsiyaviy jozibadorlikni



## URBANIZATSIYA VA UY-JOY SIYOSATI

### Shaharlar qay tarzda barqaror rivojlanadi?

mustahkamlash, soliq bazasini kengaytirish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish imkonidir.

Dunyo tajribasi urbanizatsiya samarasi uzoq muddatli strategiya va kuchli boshqaruv institutlarisiz amalga oshmasligini ko'rsatadi. Masalan, Singapur bir necha o'n yilda aholisi ko'p va resurslari cheklangan shahardan dunyodagi eng qulay, raqobatbardosh megapolisga aylandi. Bu puxta shaharsozlik rejasi, jamoat transporti va

uy-joy siyosati orqali amalga oshirildi. Seul esa infratuzilma va raqamlashtirishga yo'naltirilgan katta investitsiyalar orqali iqtisodiy va texnologik markazga aylandi.

O'zbekiston ham ana shunday strategik yo'lni bosib o'tmoqda. Biroq o'n yillar oldin mamlakatimizda urbanizatsiya sohasida ko'plab tizimli muammolar mavjud edi. Shaharlar uzoq muddatli turg'unlik holatida, hududlarni

rivojlantirish bo'yicha yagona strategiya yo'q edi. Ko'pgina shaharlarning bosh rejasi aholi o'sish sur'atiga sham kelmasdi. Transport, kommunal xo'jalik va muhandislik infratuzilmasi urbanizatsiya talabiga javob bermas, yo'llar tor, jamoat transportida tirbandlik yuqori va kommunikatsiyalar eskirgan edi. Ekologiya, obodonlashtirish va yashil hududlarga yetarli e'tibor qaratilmagan, uy-joy qurilishi esa ko'pincha ijtimoiy infratuzilmasiz amalga oshirilardi.

2017-yildan boshlab davlatimiz rahbari tashabbusi bilan shaharlarni kompleks rivojlantirish va urbanizatsiya davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Shaharlarni rivojlantirishga tizimli va strategik yondashuv joriy etildi. Urbanizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida asosiy yo'nalish sifatida belgilandi. Katta sarmoyalar yo'l tarmoqlari, jamoat transporti, muhandislik va kommunal xo'jalik, kommunikatsiyalar, suv va issiqlik ta'minoti, elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirildi.

Eng asosiysi, shaharlar va hududlar o'rtasida transport aloqalari yaxshilaniib, aholi mobilligi sezilarli darajada oshdi. Shahar muhitini inson uchun qulaylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi bog'lar, xiyobonlar, piyodalar yo'laklari va umumiy jamoat joylari barpo etilmoqda.

Institutsional rivojlanishda muhim qadam o'tgan yili noyabrda Urbanizatsiya va uy-joy

bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi tashkil etilishi bo'ldi. Prezidentimiz farmoni bilan qo'mita urbanizatsiya jarayoni, uy-joy qurilishi, renovatsiya va ipoteka sohasida davlat siyosatini yuritish, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi dasturlarni muvofiqlashtirish va rivojlantirish bo'yicha vakolatli davlat organi deb belgilandi.

Qo'mita qarorlarning barcha bosqichini muvofiqlashtirish, dasturlarni rivojlantirish va nazorat qilish imkoniga ega. Milliy qo'mita tuzilgandan so'ng “Yangi O'zbekiston” massivlari va boshqa massivlarda ko'p kvartirali uylar qurilishi hamda Toshkent, Nukus va viloyatlardagi yirik shaharlar yagona boshqaruv tizimiga o'tdi. Bu tarqoq yondashuvdan kompleks va shahar rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Shu tariqa urbanizatsiya O'zbekistonda uzluksiz, strategik jihatdan rejalashtirilgan rivojlanish instrumentiga aylandi. Bu siyosat iqtisodiy o'sish, investitsiyaviy jozibadorlik va aholi hayoti sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda davlat uchun uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Murojaatnomada bu sohaga alohida e'tibor qaratilgan ham bejiz emas. Zero, urbanizatsiya jarayonini jadallashtirish, aglomeratsiyalar barpo etish, shaharlarni yashash uchun qulaylashtirish va aholining keng qatlamlari uchun munosib hamda hamyonbop uy-joyga ehtiyojini qondirish bugungi kunda faqat qurilish shosining emas, balki ijtimoiy

adolat, iqtisodiy barqarorlik va kelajak avlodlar manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq strategik vazifadir.

Davlatimiz rahbari ushbu sohaga to'xtalar ekan, “Urbanizatsiya va shaharlarni barqaror rivojlantirish bo'yicha yangi islohotlarni boshlaymiz. Jumladan, shaharlar tartibsiz kengayishining oldini olish bo'yicha aniq mezonlarni belgilaymiz va shu orqali ekin maydonlari asossiz qisqarib ketishiga chek qo'yiladi”, deya ta'kidladi.

Shunday ekan, urbanizatsiya, eng avvalo, insonlar hayoti sifati uchun qilinadigan tanlovdir. Bu jarayonda yo'l qo'yilgan har qanday xato qimmatga tushadi. Chunki unumdor yerlar yo'qolishi, infratuzilmaga ortiqcha yuk tushishi va aholining ishonchi susayishi mumkin. Shu bois, bugun shaharlar rivoji tasodifiy emas, balki puxta o'ylangan siyosat, uzoq muddatli rejalashtirish va professional yondashuv asosida amalga oshirilishi nihoyatda muhim.

Prezidentimizga joriy yil 3-fevral kuni urbanizatsiya va uy-joy qurilishida yangicha yondashuvlarni joriy etish yuzasidan bo'lib o'tgan taqdimotda so'nggi 8 yilda mamlakatimizda 120 million kvadrat metr yoki 600 mingdan ziyod xonadonlar qurilib, foydalanishga topshirilgan, uy-joy sotib olishga ko'maklashish uchun 541 ming fuqaroga 103 trillion so'm kam foizli ipoteka krediti va subsidiyalari ajratilgan ma'lum qilindi.

Qayd etilganidek, qurilish ishlari ko'lami kengayigan qurilish materiallari sanoati rivojiga katta turki berib, ko'plab hududlarning drayveriga aylandi. Urbanizatsiya darajasi 1991-yildagi 40,3 foizdan 51 foizga yetdi.

Taqdimotda yer resurslaridan samarali foydalanish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Xalqaro tashkilotlar hisob-kitobiga ko'ra, aholi punktlarining tartibsiz kengayib borishi ayrim hududlarda kelgusida ekin yerlarining tanqisligiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan eskirgan uy-joy fondini yangilash, uy-joy qurilishida renovatsiya ulushini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Urbanizatsiya va uy-joy qurilishi jarayonini to'g'ri hamda samarali rejalashtirish uchun raqamli texnologiyalardan keng foydalanish muhim. Ayni maqsadda bosh va master rejalarining yagona ma'lumotlar bazasi, qurilishga tayyor yer maydonlari bazasi, ko'p kvartirali uylarning yagona geoxorobot bazasi, eskuro tizimi, quruvchilar reytingi va boshqalarni qamrab olgan “Uy-joy” axborot tizimi ishlab chiqildi.

Mazkur chora-tadbirlar natijasida aholining uy-joyga talablari hisobga olingan holda qurilish hajmi ortadi. Qurilayotgan uy-joylar esa barcha zarur infratuzilmaga ega bo'ladi. Urbanizatsiya jarayoni aniq belgilangan dasturlar asosida tashkil etiladi.

**Lutfulla SUVONOV,**  
**“Yangi O'zbekiston” muxbiri**



YANGI O‘ZBEKISTON

KO‘ZGU

5

2026-yil 5-mart, 44-son



Nuqtayi nazar

Yoshlar orasida yangrayotgan #MeningPrezidentim iborasi oddiy chaqiruv emas. Bu — ishonch ifodasi. Bu — o‘zgarishlarga daxldorlik hissi. Bu — mamlakat kelajagida o‘z o‘rnini ko‘ra boshlagan avlodning ichki ovozi.



Islohot odimlari

# YOSHLIK, SHIJOAT VA ISHONCH taraqquiyotni ta’minlovchi kuch



Alisher SA'DULLAYEV,  
Yoshlar ishlari agentligi direktori,  
senator

Zamonaviy tajriba shuni ko‘rsatadiki, yoshlarga imkoniyat eshiklarini ochib bergan, ularni bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirgan jamiyat barqaror rivojlanish yo‘liga chiqadi. Chunki yoshlar nafaqat demografik qatlam, balki taraqqiyotning eng faol harakatlantiruvchi kuchi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda ayni tamoyil asosida strategik taraqqiyot modelini shakllantirmoqda.

## Daxldorlik qudrati

Bilasizmi, nima uchun O‘zbekiston yoshlari Prezidentimizni yaxshi ko‘radi? Chunki ular davlatimiz rahbarida qat’iyatni ko‘radi, shijoatni his etadi. Bugungi yosh avlod uchun balandparvoz va dalar emas, aniq qarorlar, real imkoniyatlar, ochilgan yo‘lar muhimroq. Yoshlar energiyani his qiladi, irodaning kuchini sezadi.

Shu bois, yoshlar orasida yangrayotgan #MeningPrezidentim iborasi oddiy chaqiruv emas. Bu — ishonch ifodasi. Bu — o‘zgarishlarga daxldorlik hissi. Bu — mamlakat kelajagida o‘z o‘rnini ko‘ra boshlagan avlodning ichki ovozi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlar siyosati alohida dastur yoki kampaniya doirasida emas, yaxlit va uzluksiz ishlaydigan vertikal tizim asosida yo‘lga qo‘yildi. Mazkur model “Inson qadri uchun” tamoyilining amaliy ifodasidir. Ya’ni hech bir yosh e’tibordan chetda qolmasligi bosh mezon sifatida belgilandi. Bu yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish imkonini bermog‘da. Yoshlar bilan muloqot rasmiy protokollardan chiqib, bevosita va ochiq shaklda yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimiz yetakchisining yoshlar bilan har yili shaxsan o‘tkazadigan uchrashuvlari alohida siyosiy madaniyat sifatida davlat va yoshlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot maydoniga aylandi. Shu yil 24-fevral kuni ko‘ksaroy qarorgohida Prezidentimizning yoshlar bilan ochiq muloqoti buning yorqin misolidir. Uchrashuvda Qoraqalpog‘iston, barcha viloyatlar hamda Toshkent shahridagi studiyalar orqali 60 mingdan ziyod yoshlar vakillari ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari yig‘ilganlarni samimiy qutar ekan, bu uchrashuv yoshlar salohiyatiga berilgan yuksak ishonch ramzi ekanini ta’kidladi.

Prezidentimizning “Yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz timsolida biz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchni ko‘ramiz” degan fikri uchrashuvning bosh g‘oyasini aniq ifoda etdi.

## Yoshlar oqimi: xavf emas, resurs

Davlatimiz rahbari ochiq muloqotda yoshlarning kelgusi hayoti bilan bog‘liq juda muhim ko‘rsatkich va prognozlariga aholi do‘xtaladi. Xususan, ayni paytda mehnat bozoriga har yili 600 ming yosh kirib kelayotgan bo‘lsa, 2030-yilga borib, mazkur ko‘rsatkich 1 millionga yetishi yoshlar bilan samarali ishlash masalasi naqadar jiddiy ekanini ochiq ko‘rsatadi. Bu oqimni muammo deb talqin qilish yoki ko‘niyatlar deb ko‘rish tizimning tayyorgarligiga bog‘liq. Agar tizim tayyor bo‘lmasa, bosim ortadi, tayyor bo‘lsa, yoshlarning bu kuchi iqtisodiy o‘shish drayveriga aylanadi.

Xo‘sh, bizda bunday demografik kuchni to‘g‘ri yo‘naltira olish imkoniyatlari qanday?

Avvalo, masala faqat “umumiy siyosat” darajasida qolmay, ish tartibiga tushirilayotgani bilan ahamiyatli. Sohaga mas’ul rahbarlar mahalla, maktab va texnikumlarga borib, yoshlarni eshitishi, muammolarini joyida hal qilishi tizim “eshitish — yechim topish” janjiri bilan mustahkamlanishini anglatadi.

E’tibor bering, birgina uchrashuvning o‘zida sohaga oid 32 muhim tashabbus ilgari surildi! Ular orasida yoshlar tadbirkorligi va startaplarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash alohida ajralib turadi. Prezidentimiz yoshlar tadbirkorligi uchun qo‘shimcha 200 million dollar ajratilishini e’lon qildi. Kredit mexanizmlarining o‘zi ham turli ehtiyoj va bosqichlarga moslab qayta sozlanmog‘da. O‘zini o‘zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdori 100 milliondan 300 million so‘mgacha oshirildi. Yosh tadbirkorlar loyihalarini uchun 10 milliard so‘mgacha kredit ajratish mumkin bo‘ladi hamda innovatsion startap loyihalariga 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat beriladi. Servis va umumiy ovqatlanish sohasida mingdan ziyod ish o‘rni

Bugun dunyoda taraqqiyot tamoyillari tubdan o‘zgarib bormog‘da. Texnologik yangilanishlar jadallashgan, global mehnat bozori keskin raqobat maydoniga aylangan, raqamli iqtisodiyot yetakchi rol o‘ynayotgan sharoitda ustunlik, avvalo, bilim, tashabbuskorlik va tez moslashish qobiliyatiga tayanadi. Endi iqtisodiy muvaffaqiyatning bosh mezoni inson tafakkuri, kreativligi va innovatsion fikrlash salohiyatidir.

ochgan mahalliy brendlardan franshiza olib, filial ochishga qiziqayotgan yoshlar uchun qulay moliyalashtirish paketlari joriy etilishi ham ish o‘rni ochishga qaratilgan yondashuvning amaliy ko‘rinishidir.

Bundan tashqari, har bir hududda yoshlarga biznes xizmatlarini ko‘rsatuvchi “Yoshlar biznes inkubatori” ishga tushiriladi. Banklar 50 ming yoshga bepul biznes reja tayyorlab beradi va 20 ming yigit-qizni tadbirkorlikka o‘qitadi.

Tashabbuslarning yana bir muhim yo‘nalishi tadbirkorlikka o‘qitish va “talab — ko‘nikma — kapital” janrini yaratish, kasbiy ta’lim, texnikumlar va yoshlarning xalqaro mehnat tajribasini yo‘lga qo‘yish masalasi bilan bog‘liq. Yoshlar bilan ishlash endi faqat moliyaviy yordam orqali emas, bilim va ko‘nikma berish bilan ham bir janjirga ulanmog‘da. “Kelajak tadbirkori” dasturi ishga tushirilishi, kreditlar garovsiz 20 million so‘mgacha, 300 million so‘mgacha, 2 milliard so‘mgacha va 10 milliard so‘mgacha bosqichma-bosqich berilishi yoshlarning o‘shish trayektoriyasi ham hisobga olinayotganini bildiradi. Tadbirkorlikni endi boshlayotgan yoshlarning 30 foizi biznes ko‘nikmasi yetishmagani uchun qiyinchiliklarga uchrayotgani qayd etilgani esa aynan shu bo‘g‘inni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Global raqobat uchun zarur ko‘nikmalar — xorijiy til va xalqaro tajriba bo‘yicha tizimli yondashuv ko‘rinadi. Xorijiy til



sertifikatiga ega yoshlar 600 mingdan oshgani, 72 ming instruktor shakllangani, xususiy o‘quv markazlari soni 38 mingdan oshgani qayd etildi. O‘quv markazlari uyushmasini tashkil etish tashabbusi qo‘llab-quvvatlangani, uyushmaga a’zo markazlarga binosini ijaraga bergan tadbirkorlarni ayrim soliqlardan ozod etish hamda o‘qituvchilarni AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur, Yaponiya kabi davlatlarga stajirovka yuborish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgani ham malaka va sifati oshirishga qaratilgan.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, volontyorlikni rag‘batlantirish va fuqarolik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishidagi ishlar ham diqqatga molik. Birgina volontyorlik harakatini olaylik. Ko‘ngillilar faoliyati 5 karraga ko‘payib, volontyorlari soni 100 mingdan oshgan. Tashabbusga ko‘ra, Yoshlar ishlari agentligi huzurida “Volontyorlikni qo‘llab-quvvatlash” jamg‘armasi tashkil etilib, unga har yili byudjetdan 20 milliard so‘m, viloyatlardan 3 milliard so‘mdan ajratilishi, volontyorlik loyihalariga 100 million so‘mgacha grant berilishi belgilangan ijtimoiy, ekologik muammolarni hal etishda katta siljishlarga olib kelishiga ishonaman.

Tabiiyki, yoshlar siyosati faqat muvaffaqiyatli qatlam bilan ishlashdan iborat emas. Shu ma’noda, “Ikkinchi imkon” loyihasining joriy etilishi jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan yoshlarni zamonaviy AT kasblar va xorijiy tillarga o‘qitish orqali ularni jamiyatga qayta integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘z-o‘zidan jazodan keyingi ijtimoiy moslashuvni tizimli darajaga olib chiqadi. Ushbu tizim muayyan hududlarda 1-iyundan, keyin barcha hududda joriy etishda hech bir yoshni e’tibordan chetda qoldirmaslik tamoyilining amaliy ifodasidir.

## Zanjir mexanizmi shakllanmog‘da

Yoshlar siyosatining bugungi bosqichida yana bir muhim o‘zgarish kuzatilmog‘da. Endi masala faqat bandlikni ta’minlash, bir martalik yordamlar yoki kredit ajratish bilan cheklanmayapti. Tizim yoshni g‘oyadan amaldagi biznesgacha, ta’limdan bozorgacha kuzatib, kerak bo‘lsa, yetaklab boradigan mexanizmga aylanayapti. Masalan, har bir hududda “Yoshlar biznes inkubatori” tashkil etilishi e’lon qilindi. Bu yerda yoshlar

g‘oyani biznes modelga aylantirish, buxgalteriya yuritish, marketing, bank bilan ishlash, ichki va tashqi bozorlarga chiqish bo‘yicha kompleks xizmatlarni oladi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, tadbirkorlikni endi boshlayotgan yoshlarning 30 foizi biznes ko‘nikmasi yetishmasligi sabab qiyinchilikka duch kelmog‘da. Demak, moliya bilan bir qatorda bilim va malaka ham hal qiluvchi omil ekanini unutmaslik lozim. Ayni shu ma’noda 40 ming yoshni Garvard, Stenford kabi nufuzli oliy o‘quv yurtlari tajribasi asosida tadbirkorlikka o‘qitishga qaratilgan “Yangi avlod tadbirkorlari” dasturi ishga tushadi. Dastur doirasida eng yaxshi 1000 nafar bitiruvchining loyihasiga 3 yil muddatga 200 million so‘mgacha 7 foizli ssuda ajratilishi biznes ta’limi va kapitalni birlashtirgan modelni shakllantiradi. Natijada jarayon uzluksizligi ta’minlanib, yosh tadbirkorlar uchun qisqa muddatlarda o‘z biznesini muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish imkonini paydo bo‘ladi.

Bunday intensiv natija beruvchi yondashuv kelajakda insoniy resurslar defitsitini paydo bo‘lmassligiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Zero, yosh biznes egalari qanchalik tez o‘z faoliyatini izga solsa va kapitalini rivojlantirsa, mehnat bozori uchun shunchalik yaxshi bo‘ladi.

Yoki bo‘lmasa, startaplar misolida ham xuddi shunday jarayonni ko‘ramiz. Yoshlarimizning 63 ta startapi AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va BAA bozorlariga chiqqani tasodif emas. Yosh tadbirkorlar bugun mamlakatdagi biznes vakillarining 35 foizini tashkil etyapti. Shu yil 11-fevraldagi “Startaplarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks ektotizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror bu jarayonni tizimli bosqichga olib chiqadi. Hozirga qadar shakllangan startap muhitini endi tizimlashtirish vazifasi qo‘yildi: g‘oyani aniqlashdan tortib, mahsulot yaratish, moliyalashtirish va global bozorga olib chiqishgacha bo‘lgan bosqichlar aniq mexanizmlar bilan mustahkamlandi. Keyingi besh yilda minglab startaplarni yaratish, yuzlab loyihalarni millionlab dollar qiymatiga yetkazish, o‘n minglab yorqin ish o‘rinlarini ochish maqsadi belgilandi. O‘tgan yili O‘zbekiston ilk bor “Global Startup Ecosystem Index” reytingida eng yaxshi 100 ta startap ektotizmini qatargi kirgani, ektotizim o‘shish sur’ati 132 foizdan oshgani, umumiy qiymati 3,9



Gulchehra RIXSIYEVA,  
Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti rektori

# MA'RIFATLI MILLATNING ERTASI OYDIN BO'LADI

Davlatimiz rahbarining galdagi muloqotdagi gaplari barchamizni, ayniqsa, ta’lim sohasi vakillarini qattiq ta’sirlantirdi. “Yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz timsolida biz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchni ko‘ramiz”, dedi Prezidentimiz. Ana shu yoshlar ichida bizning yetti mingga yaqin sharqshunos talabamiz ham bor. Ularning kelajagiga mas’ullikni zimnamizga olib, jamoa

beqiyos o‘rin tutadi. Aynan shu vazifalar sharqshunos-tarjimonlar oldidagi mas’uliyatni oshiradi. Bu borada aytilgan tashabbus doirasida “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish” jamg‘armasi orqali iste’dodli yozuvchilarga ijod uchun oyiga 20 million so‘mdan haq to‘lanishi, eng faol kitobxon o‘quvchilarga 10 million so‘mdan mukofot berilishi kabi yangiliklar yosh tarjimonlarimizga katta motivatsiya beradi, ularning mehnatini munosib rag‘batlantirish imkoniyati kengayayotgani yangi rejalar tuzish uchun keng yo‘l ochadi.

Shuning uchun universitetimizning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan Sharq tillaridagi eng sara adabiyotlarni o‘zbek tiliga hamda milliy adabiyot durdonalarini Sharq tillariga tarjima qilish va chop etish xarajatlarini qoplab berish masalasida ham yangi reja belgilandi. Sharqshunos olimlar va iqtidorli talabalarga bu borada aniq ijodiy buyurtmalar beriladi.

Yoshlarimizning yangilikka intilishi samarasi startap loyihalar orqali ham namoyon bo‘ladi. Jamiyat rivoji, iqtisodiy o‘shish borasida startap loyihalarining ahamiyati yuqori ekanini xorijiy tajribalarda isbotlangan. Aynan kreativ yoshlarning tashabbus va startaplarni mavjud bo‘shliqlarni to‘ldiradi. Bu borada bizning ham rejalaramiz bor. Xususan, “Eng yaxshi startap g‘oya” tanlovi doirasida universitet

talabalari tomonidan taqdim etiladigan 20 ta startap g‘oya loyihasi saralab olinadi hamda ular ichida eng yuqori o‘ringa loyiq ko‘rilgan g‘oyalar respublika bosqichida ishtirok etadi.

Shuningdek, ushbu loyihalar asosida universitetda startap loyihalar inkubatsiyasi tashkil etiladi. Startap loyihalar rivojlantirilib, joriy yilda kamida 10 ta loyiha tijoratlashtirish bosqichigacha olib chiqiladi.

“1 talaba — 1 daromad manbai” tashabbusi ishlab chiqilishi asosida universitet talabalari orasida “Kelajakka qadam” dasturi doirasida kamida 5 ta loyihani tijorat banki tomonidan moliyalashtirishga yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqishi kuchli. Bir emas, bir necha tilni o‘rganib, yuqori natijalarga erishayotgan talabalarimiz bor. Xorijiy til sertifikatiga ega talabalarni qo‘llab-quvvatlash borasida ham rejalaramiz katta. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj 20 talabaga sertifikat xarajatlarini universitetning talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasidan qisman kompensatsiya qilinadi. Yuqori natija ko‘rsatgan 10 talabaga esa maxsus rag‘batlantirish joriy etiladi.

Universitetimizda bu yildan boshlab xalqaro amaliyot dasturlari kengaytirilib, xorijida stajirovka o‘tayotgan talabalar sonini oshirish uchun yangi loyihalar ishlab chiqiladi. Bunda amaliyot dasturlari qayta ko‘ribil, talabalar amaliyotni xorijdagi elchixona va diplomatik vakolatxonalardan tashqari xorijiy tashkilotlarda ham o‘tash imkoniyati yaratiladi. Tokio chet tillar universiteti bilan hamkorlik dasturi doirasida yozgi “Work and travel” modeli asosida kamida 30 talaba qisqa muddatli xorijiy ish amaliyotiga jalb qilinadi.

Talaba yoshlarning yaxshi mutaxassis bo‘lishida ilmiy-ijodiy faoliyat katta ahamiyatga ega. Ilmiy to‘garaklar soni va sifati yaxshilash, ularga jalb etilgan talabalarni esa 1700 dan 2000 nafargacha oshirish reja qilindi.

Yil yakuni bo‘yicha tadbirkorlikka o‘qitilgan talabalar soni 1000 nafar, inkubatsiyaga olingan startaplar 20 ta, xorijiy amaliyotga yuborilgan talabalar 200 nafar, ilmiy faoliyatga jalb etilgan yoshlar 2000 nafar, bitiruvchilar bandligi esa 100 foiz darajasiga yetkazilishi kutilmog‘da. Bu borada natijalarga erishishda mahalliy hamkor tashkilotlar, tadbirlar bilan birga xorijiy hamkorlarni ham jalb etishni kengaytirish yaxshi samara beradi.

Mazkur chora-tadbirlar orqali yoshlarning intellektual, innovatsion va professional salohiyati to‘liq ro‘yobga chiqariladi, ular xalqaro maydonda raqobatbardosh, tashabbuskor va yetuk mutaxassis sifatida shakllanadi. Ushbu vazifalarni ados etish uchun, birinchi navbatda, yoshlar sog‘lom bo‘lishi zarur. Ularning ham ma’nan, ham jismonan sog‘lom bo‘lishiga yetarli sharoit yaratilgan. Prezidentimiz sport tadbirlarini ko‘paytirish, xalqaro musobaqalarda g‘oliblarni tayyorlash uchun harakat qilish zarurligini ko‘p ta’kidlaydi. Chunki bu ham ichki, ham tashqi faoliyatimizda muhim qurol, asosiy ko‘rsatkichlarimiz namoyishi bo‘la oladi.

Kuni kecha Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektorining jamoa, professor-o‘qituvchilar va talabalarga Murojaatnomasi qabul qilindi. Unda davlatimiz rahbarining yoshlar bilan tarixiy uchrashuvda ilgari surilgan yoshlarga oid 32 ta tarixiy tashabbus va qarorlar ijrosi bo‘yicha ta’lim muassasamizda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar belgilab olingan. Ular qatorida har hafta “Yoshlar kuni”da rektorning talabalar bilan muloqotlarini mustazam tashkil etish, bitiruvchilar bandligini ta’minlash, Yaponiyaning Bolkom kompaniyasining 300 ming AQSH dollari hajmdagi investitsiyasi asosida “Yoshlar innovatsion markazi”ni tashkil etish va boshqa muhim vazifalar bor.

Murojaatnomada, shuningdek, bitiruvchilarimizni yuqori malakali va xalqaro maydonda raqobatbardosh mutaxassis qilib tayyorlash, milliy merosimizni rag‘ib eta oladigan vatandorlar, yuksak ma’naviyat egasi etib tarbiyalashda sharqona an’analarimiz hamda zamonaviy yondashuvlar asosida birlashish, Prezidentimizning tashabbuslarini birdamlik bilan joriy etishda faol bo‘lishga dar’vat qilingan.

Umuman, qutlug‘ zaminimiz, mamlakatni boshqarishdagi adolati yondashuv, har bir masalaga bilim bilan yechim topish va davlatimizning ko‘p qirrali siyosati markazida yoshlar manfaatini doimiy e’tiborda tutishi Uchinchi Renessans paydevorini yoshlar qurishini ko‘rsatmog‘da.

2026-yil 5-mart, 44-son

6

MEZON

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekistonda nikohlar soni 267 mingni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024-yildagiga nisbatan 4,7 mingga kamaygan. Ajrimlar soni esa deyarli 47 mingga yetib, 2024-yildagidan 1,8 mingga oshgan.

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz\_official

yuz.uz\_news

yuz.uz\_news

Mulohaza

MAROMIYLIK

LOYIHASI

Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyl  
hazratlarining bunday satrlari bor:  
Tanang otdir, ruhing uning suvoriysi,  
Ot ozig'i suvoriyga oziq bo'lmas.  
Bugun biz iste'molchilar jamiyati bilan ro'baro' turibmiz. Otga oziq  
berypimiz, uni boshqarishi lozim bo'lgan suvoriyni unutib qo'yayotgan  
davr bilan yuzma-yuzmiz. Iste'molchilik jamiyati bilan yuzlashib, oddiy  
toparmon-tutarmon mavjudotga aylanib qolayotgan kishilarni ko'rib,  
hazratning so'zlari zalvori, yuki yanada ortishini anglaydi kishi.

MAROMIYLIK

—

ME'YOR, MAROM, MO'TADILLIK, MUVOZANAT DEMAK

Botu ALIMOV,  
Respublika Ma'naviyat va  
ma'rifat markazi  
rahbarining birinchi  
o'rinbosari

Xalqimizda bunday gap bor:  
“Yomon so'z tuzingga uradi, yomon yemish  
yuzingga uradi”.

Mavzuzima iste'molchilik va maromiylik ekan,  
u bevosita bugun biz iste'mol qilayotgan moddiy,  
ma'naviy, axboriy “taomlar”ning sifati, turi bilan  
bog'liqdir.

Avvalo, maromiylik degan so'zga to'xtalsak.  
Har bir narsada me'yor, marom, mo'tadillik  
bo'ladi. Busiz inson ham, u mansub jamiyat ham  
foйда ko'rmaydi.

Mavzuga bevosita daxldor — AQSHdagi  
yaqin o'tmish voqeligiga to'xtaladigan bo'lsak,  
bir qator sotsiologlar iste'molchilik g'oyasining  
vujudga kelishini Ikkinchi jahon urushidan so'ng  
paydo bo'lgan ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari  
saqlab qolingan bilan bog'laydi.

Darhaqiqat, urush yillarida AQSH sanoati jadal  
rivojlangan, harbiy buyurtmalar hisobiga ishlab  
chiqarish hajmi keskin oshgan. Urush tugagach  
esa garchi ehtiyoj urush davridagidek bo'lmasa-da,  
ishlab chiqarish quvvati saqlab qolindi. Bu esa  
ommaviy iste'molni rag'batlantirishni talab  
qildi. Natijada amerikaliklarning iste'mol ehtiyoji  
hayot tarziga singib, madaniy qadriyat sifatida  
shakllandi.

Bunda asosiy targ'ibot qurollari sifatida turli  
shakldagi reklama, OAV, kinoindustriyadan  
keng foydalanildi. Urushdan keyingi “baxtli  
amerikalik”ning qiyofasi moddiy boylik, doimiy  
xarid va dabdabali turmush kechirish deya  
tasvirlana boshladi.

Ushbu g'oya, istaymizmi-yo'qmi,  
jamiyatimizda ham o'z ta'sirini sezdirib  
bormoqda. Uning milliy qadriyatlar, yoshlar va  
ularning mas'uliyati, erkak va ayol o'rtasidagi  
axloqiy munosabat, oilaning ma'naviy ildiziga  
salbiy ta'siri natijasida nafs va hirsni qondirish,  
yoshlikni o'yin-kulgi bilan o'tkazish hamda shu  
yengil yo'lni hayot tarziga aylantirish asosiy  
g'oyaga aylandi.

Yoshlardan eng muhim mas'uliyatlar olib  
tashlanadi, o'g'il bolaning asosiy sifati pul  
topish va boy bo'lish, qiz bolaning sifati go'zal  
va maftunkor ko'rinishi bilan o'Ichana boshladi.

Erkaklarning asosiy vazifasi boy bo'lish uchun  
har qanday pul topish manbalari — qimor  
o'yinlari, o'g'irlik, firibgarlik, jinoyatga qo'l  
urishdan to tadbirkorlikkacha chegarasiz bo'lsa,  
ayollar jozibador ko'rinishlari uchun axloq-odob  
me'yorlarini unutishlari tabiiy holga aylandi.  
Boylik, moddiyat qarshisida sof insoniy tuyg'ular,  
fazilatlar, xususana, mehr va muhabbat eskilik  
sarqiti sifatida chetga chiqdi.

Keyinchalik mazkur g'oyaning  
“sivilizatsiyalashgan” davlatlarda keng tarqalishi  
oqibatida har xil ijtimoiy illatlar urchdi. Bolalar  
ota-onalaridan uzoqlashdi, jamiyatga qariyalar uyi  
degan qarash kirib keldi. Oilaviy ajrimlar ortdi,

o'yinlar o'ynash, shu bois, kechroq turmush  
qurishni tanlash yoshlarning tayangan nuqtasi  
bo'lib qoldi. Bu esa jamiyatdagi ma'naviy va  
axloqiy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning  
yanvar-dekabr oylarida O'zbekistonda nikohlar  
soni 267 mingni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich  
2024-yildagiga nisbatan 4,7 mingga kamaygan.  
Ajrimlar soni esa deyarli 47 mingga yetib,  
2024-yildagidan 1,8 mingga oshgan.

Nikohlar soni kamayishi, avvalo, nikoh  
yoshining kechikishi, iqtisodiy barqarorlikka  
intilish bilan izohlanadi. Ajrashishlar oshishi esa  
oilaviy munosabatlardagi sifat o'zgarishlaridan

Jamiyatimizning ma'naviy iqlimidagi asl  
manzarani ko'rish, og'riq nuqtalarimizdan boxabar  
bo'lish maqsadida 2024-2025-yillarda Respublika  
Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan barcha  
huddullarimizda sotsiologik tadqiqot o'tkazildi.  
So'rovlarda 378 ming yurtdoshimiz ishtirok etdi.  
Quyida tadqiqot natijasida aniqlangan ayrim  
ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Urf-odat va marosimlarning serxarajatligi  
14,6 foiz holatda oilaviy ajrashishlarga  
sabab bo'lmoqda. Tadqiqotda ishtirok etgan  
respondentlarning atigi 21 foizi bugungi kunda  
oilaviy tadbirlar Covid-19 pandemiyasi vaqtidagi  
kabi ko'pi bilan 30 kishini taklif qilgan holda  
kamxarj o'tkazilishini qo'llab-quvvatlaydi. Bu  
ko'rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 5  
foiz kamaygan.

Respondentlardan jamiyatdagi eng kerakli  
qadriyatlar haqida so'ralganida “mehnatsevarlik”  
degan javob 2024-yilning mos davriga nisbatan  
2 foiz kamaygan, ya'ni bugungi kunda jamiyatda  
halol mehnat orqali ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish  
darajasi pasaymoqda.

So'rovnomaga vaqtda 26,5 foiz respondent  
ortiqcha mablag'ni farzandlar tarbiyasi va ularni  
xorijda o'qitishga sarflashga tayyorligi aniqlandi.  
Ushbu ko'rsatkich 2024-yilning mos davridagiga  
nisbatan 3,7 foiz pasaygan, ya'ni farzandlarining  
ta'lim-tarbiyasiga investitsiya kiritish istagida  
bo'lgan fuqarolar ulushi kamaymoqda.

Tashqi mafkuraviy ta'sirlar va ommaviy  
madaniyatning jamiyatimizga kirib kelishi sababli  
yoshlarning xulq-atvori va ma'naviyatidagi  
o'zgarishlar o'rta yosh va keksa aholi vakillari  
tomonidan 69,3 foiz holatda salbiy baholalanmoqda.

Ushbu muammoli nuqtada Respublika  
Ma'naviyat va ma'rifat markazi millat  
ziyollilarini o'z atrofida birlashtirib, ma'naviy  
qadriyatlarimizga, jamiyat birdamligi va ijtimoiy  
hayotiga salbiy ta'sir qilayotgan illatlarga qarshi  
choralar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni  
eng muhim vazifalardan biri sifatida o'z oldiga  
qo'ydi.

Bu vazifalar doirasida maromiylik  
konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish,  
maromiylik targ'ibotini, ayniqsa, yoshlar  
orasiyda keng yo'lga qo'yish, katta avlodning,  
ziyollarning, turli soha faollarining targ'ibotchilik  
xususiyatlarini yanada oshirishga e'tibor  
qaratiladi. Yoshlar ongida iste'molchilik ta'sirini  
kamaytirish va ma'naviy barqarorlikni ta'minlash  
uchun barcha sohalarida, ayniqsa, ta'lim va ijtimoiy  
tashkilotlarda targ'ibot va ma'rifiy ishlarni keng  
yo'lga qo'yish lozim.

Antimaromiylik g'oyalariqa qarshi barqaror  
ma'rifiy muhit yaratishda ijtimoiy tarmoqlarning  
hissasi nihoyatda katta. Shu ma'noda, yana bir  
ustuvor vazifa sifatida mediakontentlarning  
jamiyatdagi me'yor va mo'tadillikka salbiy  
ta'sir qiluvchi g'oyalar targ'ibotini doimiy  
monitoring qilish, ularga qarshi ta'sirchan  
g'oyalarni ilgari suruvchi mediarejalarni  
amalga oshirish choralari ko'riladi. Milliy  
kontentlar me'yor targ'ibotini kuchaytirishga  
va maromiylikni kundalik hayot tarzimizga  
aylantirishga yo'naltiriladi.

Maromiylikning ta'lim muassasalarida  
ijtimoiy tashkilotlarda keng targ'ib etilishi ma'rifiy  
dasturlar, seminarlar va mashg'ulotlar orqali  
amalga oshiriladi. Mazkur g'oya targ'ibotida  
o'qituvchi va murabbiylar, ustozlar ulushini  
oshirish g'oyaning tarbiyaviy jihatlarini, ma'naviy  
qiymatini yoshlar ongiga singdirishga samarali  
xizmat qiladi.

Maromiylikni ta'minlashda yoshlarning  
tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, jumladan, bu  
g'oyani rivojlantirish uchun yoshlar tomonidan  
ilgari surilgan loyiha va tashabbuslarni o'rganish,  
ularning qalbiga quloq tutish konsepsiyadan  
kutilayotgan natijani oshiradi.

Aslida, maromiylik degan tushuncha  
bizga begona emas, kecha yoki bugun paydo  
bo'lgani yo'q. Hayotda ham, oilada ham  
kishilar bilan munosabatlarda me'yor, marom,  
mo'tadillik, muvozanat lozim. Ming yillar  
ongida xavfli tus oladi. Chunki dunyoqarashi hali  
to'liq shakllanmagan yoshlar uchun iste'molchilik  
mehnat va sabr o'rmini tez boyish istagi bilan,  
ma'naviy kamolot o'rmini tashqi ko'rinish va  
dabdaba bilan, oilaviy mas'uliyat o'rmini shaxsiy  
manfaat bilan almashtiradi.

Qatralar

Bu dunyoning  
erka malagi

Tongda turib ibodat qilar, farzandlarin  
baxtini tilar. Ular doim sog' bo'lishini,  
orzulari ushalishini, baxti bekam, boy  
bo'lishini so'rar mudom Tangridan.

O'z g'amini aslo yemaydi, o'zi uchun  
yashay demaydi. Gar ko'nglini og'ritsangiz  
ham, ozor berib yig'latsangiz ham, oilani  
muqaddas bilib, hayotidan nolib yurmaydi.  
Yashayverar dardini yutib, farog'atli  
kunlarni kutib. Ayollarga faqat to'kis baxt  
kerak, omonatmas, bekam-ko'st, naqd  
kerak!

So'rab qo'yg'in ko'ngil  
uchun, ko'ngli qolmasin

Ko'nglimiz juda nozik, mehr istar  
mudom dilimiz. Oilada bo'lsin deymiz o'z  
o'mimiz, aytar so'zimiz. Yon-atrofga tiyrak  
boqib, qani edi hech bo'lmasa deymiz  
kamimiz. Yuguramiz, yelamiz, uyim-joyim,  
bolam va yana ishim deymiz, charchashni  
ham bilmaymiz. Go'yo bu omonat dunyoga  
bog'lab bergandayin umrimiz.

Ko'ngil esa doim ham to'lavermas  
ekan, ba'zan rizo, norizo, nimadandir  
kentik, behalovat, nimagadir shoshgan,  
ulgura olamanmi degan xavotir bilan  
yashayveramiz.

Ayol, to'xta bir pas. Qayga  
shoshmoqdasan, bunchalar yelib-  
yugurmasang, tiniming bormi  
o'zi, uyqungda halovat, orom-chi?  
Turmush o'rtog'ingning ko'nglin  
olasan, farzandlaringga parvona misol  
girdikapalaksan, nabiralar qurshovida  
shodsan-xurramsan.

“Kiyim-boshim but, pulim bor  
cho'ntagimda, sevgan kasbim bilan  
mashg'ulman, farzandlarim sog'u salomat,  
yana nima kerak menga”, deysan va o'z  
fikringdan, baxting butunligidan yayrab  
ketasan.

To'g'ri, bu ko'hna olamda yashashning  
o'zi ham baxt. Ammo o'ylab ko'raylik-  
chi, aziz ayollar, qachon tashvishlandik  
va bezovta bo'ldik sog'lig'imizdan? Nega  
yuragimiz tez yoki sekin urmoqda so'nggi  
vaqtlarda, ba'zan havo yetmay qolgandek  
bo'lar bu keng dunyoda...

Nega bundan tashvishlanmay,  
qo'rqmayapmiz? Axir bog'lab  
bermaganlar ku bizni dunyoga? Ba'zan  
turmushning mushlari ichra borligimizni,  
uzoqdagi yaqinlarimizni ham unutayozdik.  
Keksa onangizni sog'insangizda, borib  
ko'rishga vaqt topolmay qoldingiz, o'z  
ishingiz bilan bo'lib.

Balki yolg'izgina opangiz yo'lingizga  
termulib ko'z tikmoqdadir sarg'ayib  
so'lib. Aka-uka, amma-xola, jiyalarlingiz  
qondoshingiz, qoningiz axir. Siz ularning  
bir bo'lagisiz, o'ralashib qolmandingizmi  
oila va ro'zg'or tashvishlariga?

Men o'zimdanda qiyos olib yozdim  
bularni. Chunki bahonam ko'p, yetmaydi  
vaqtim. Ishim ko'pligini, vaqtim ozligini  
vaj-korson qilib ko'rsataman. Hatto

yonimdagi qo'shni kampirdan hol so'ray  
olmay qolaman ba'zan. Ertaga, ertaga  
deyman, lekin ertalarning ertasi ko'pdir.

Qachon qizlarim bilan kinoga yoki  
konsertga tushdim, hatto eslolmadim ham.

O'yladim, uzoq o'yladim, o'zim  
uchun yashayman endi. Ertaga shifokor  
ko'rigidan qayta o'taman. Navro'zi olamda  
Buxoroga ketaman. Dadam va onamdan  
qolgan omonat — opam va akalarnimni  
borib ko'raman, diydoriga to'yaman.

Ayol, sen hayotning farishtasidan.

Ummring va oilaning sarishtasi, ko'ngil  
malagisan. Bilaman, baribir o'zing uchun  
yashamaysan, o'zgalar g'amini yeysan.  
Ammo bilib qo'yki, o'sha o'zgalar sening  
borligidagi boring bo'ladi. Ba'zan ular  
yo'llaringga ko'z tikib, bexosdan, bemavrid  
o'tib qoladi.

Mehr va baxt ulashuvchi zotsan.

Ulashaver shodlik, baraka top kasbu  
koringdan. Biroq ogoh bo'lg'in  
sog'lig'ingdan ham. Olisdagi qarindoshing  
xafa bo'lmasin, so'rab qo'yg'in ko'ngil  
uchun, ko'ngli qolmasin. Farzanding  
qalbiga ham bir mo'ralab qo'y, unda  
qanday kechyapti fikr bilan o'y?

Hashamat istamas,  
boylik ne darkor?

Juda ham ta'sirchanmiz, suv ko'tarmas  
sirkamiz. Ba'zan haq va nohaqning farqiga  
ham bormaymiz. Olov yaglig' yonamiz,  
egilmaydi boshimiz, xato qilib qo'ysak-da,  
tan olmaydi yoshimiz.

Men suluvman, bilimdon, tajribam ham  
bisoydird, o'zgdan past tushmog'im juda  
mushkul, dushvordir. U ayblidir, u gumroh,  
nechun endi uzr so'rar mendek mohi pok?  
Bitta gap ortiqcha, ikkita gap ko'p, suv  
misol purkalib sachrayveramiz. Ko'ngil ne  
istaydi, dil neni xohlar, o'zimiz ham bilmay  
qolaveramiz.

Men ham shu xilqatning o'jar  
xilidanman, indamay chaqqanlar, ortdan  
tosh otganlar, do'st ko'rinib sotganlarning  
yuziga qaragim kelmas. Balki fe'lim  
og'irdir, qusurim juda bisyor, bilib-bilmay  
qilgan xatoimni kechirgin Parvardigor.

Bahor yaglig' turfa xil tulsana-da,  
fe'limiz, kinoya, hazzillardan zil ketsa-  
da, dilimiz, nohaq ko'rolmaslikdan  
og'risa yuragimiz, barini ortga tashlab,  
yashayveramiz.

Ayol shunday xilqat, shunday mo'jiza,  
dardiyu dunyosi o'ziga sig'mas. Ayamay  
ozgina mehr bersangiz, e'zozlarga ko'milar  
har bir lahzaingiz. Hashamat istamas, boylik  
ne darkor, ko'ngil ko'chasiga teranroq  
boqing.

Kunda bo'lmasa ham oyda bir marta  
sen mening yagonam, deya so'z qoting!  
Ayolim yonimda bo'lsin desangiz,  
ko'nglimni nurafshon qilsin desangiz, siz  
uni ardolang, siz uni seving!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока”  
gazetalari tahririyati” DM

MOUASSIS:  
O‘zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salom DANIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va  
muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan  
tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari  
chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.  
Bosmaxona telefon: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-346.  
31346 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov  
Musahhih: Sherzod Mahmudov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 21:35

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.